

NEMIS TILIDA KOLLOKVIALIZMLAR VA ULARNING NUTQ JARAYONIDAGI O'RNI

Begmatov Q.M.¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nemis tilida kollokvializmlar va ularning nutqiy jarayonidagi o'rni, yasash shakllari, turlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari kollokvializmlarning qo'llanishga ko'ra ma'no munosabatlariga oid bir qator fikrlar bayon etilgan va har bir shaklga oid misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Key words: Kollokvializm, yozma adabiyot, kundalik nutq, norasmiy uslub, so'zlarning qisqartirilishi, grammatik jihat, chuqur ommalshuv, rasmiy til, grammatik me'yor.

Nemis tili o'zining rasmiy va akademik nutq shakli bilan bir qatorda, kundalik hayotda faol qo'llaniladigan og'zaki va norasmiy uslublarga ham ega bo'lgan shakllari hisobiga boy tildir. Tilning boyishiga har xil omillar sabab bo'ladi. Ana shunday omillardan biri kollokvializmlardir. Ushbu maqolamizda nemis tilidagi kollokvializmlarning asosiy xususiyatlari, ularning kelib chiqishi va qo'llanilish doiralari haqida batafsil to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Avvalo kollokvializm tushunchasi haqida ma'lumot bersak: Kollokvializmlar - bu odatda norasmiy, kundalik suhbatlarda ishlatiladigan so'z yoki iboralar shaklida namoyon bo'lib, kollokvializmlar (die Colloquialismen) - rasmiy nutqda yoki yozma adabiyotda kamroq uchraydi. Nemis tili o'zining aniqligi va tuzilmaviy murakkabligi bilan mashhur bo'lishiga qaramay, kundalik nutqda ishlatiladigan kollokvializmlar va iboralar bilan ham ajralib turadi. Bu kollokvializmlar ko'pincha rasmiy tilga oid qo'llanmalarda yoki darsliklarida uchramaydi, lekin ular nemis madaniyatini tushunish va mahalliy aholi bilan samarali muloqot qilish uchun juda zarur bo'lgan omillardandir va o'z navbatida ular ko'pincha rasmiy tilga qaraganda nisbatan ko'proq qo'llaniladigan, mazmunan ifodali yoki jonli ko'rinishga ega bo'ladi. Kollokvializmlar mintaqaga va hudud nuqtai nazardan shevalarning xususiyatidan kelib chiqib farq qilishi mumkin va ko'pincha madaniy va tarixiy mazmunga ega bo'ladi.

Kollokvializmlar o'zining xususiyatidan kelib chiqib bir qator ko'rinishda namoyon bo'ladi. Buni quyidagi ko'rinishlarda kuzatishimiz mumkin.

Norasmiy uslub, qisqartirish va soddalashtirish uslubi, emotsional va ifodali bo'lish uslubi, hududiy farqlar uslubi. Bu uslublar nemis tilining jozibasini nafaqat namoyon etadi, balki tildagi nutqiy imkoniyatlarni rasmiy shakldan odatiy suhbat shakliga o'tishni va suhbatdoshlarni muloqot jarayonida erkinligini ta'minlaydi. Norasmiy uslubda nemis tiliga oid iboralar asosan do'stlar, oila a'zolari yoki norasmiy suhbatlarda qo'llaniladi. Masalan, "Alles klar"- "hammasi tushunarli" yoki "mayli", degan ma'noni anglatadi. Bu kundalik suhbat jarayonlarida nisbatan keng qo'llaniladigan iboradir; yana bir shakl "Na?" - "nima gap?" yoki "qalaysiz?", degan ma'noni anglatadigan kollokvializm bo'lib, bu norasmiy salomlashish shakli sifatida juda yaqin kishilar tomonidan ishlatiladi. Keyingi kollokvializm esa "Tschüss" kollokvializmi bo'lib, "xayr", degan ma'noni beradi va bu shakl norasmiy xayrlashish jarayonida ishlatiladi.

Qisqartirish va soddalashtirish uslubida so'zlarning qisqartirilishi va grammatik jihatdan soddalashtirilishi nazarda tutiladi va biz buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

Ich habe es nicht gesehen → Ich hab's nicht gesehen - Men buni ko'rmaganman, yoki "Mach's gut" → Mach es gut - "yaxshi qoling" degan ma'noni hosil qiladi. Bu ko'pincha norasmiy xayrlashish shakli sifatida ishlatiladi.

Emotsional va ifodali bo'lish uslubida kollokvializmlar ko'pincha hissiyotlarni kuchli ifodalash uchun ishlatiladi, masalan:

"Das ist total geil!" → "bu juda zo'r!", yoki "Krasser Typ" → "ajoyib odam",
zo'r odam" degan ma'noni anglatadi.

"Das ist mir Wurst" "menga baribir", "meni qiziqitirmaydi" degan ma'nolarda ishlatiladi.

Hududiy farqlar uslubiga ko'ra nemis tilida kollokvializmlar mintaqalarga qarab farqlanishi mumkin. Masalan, janubiy Germaniyada, ayniqsa Bavariya va Avstriyada Servus! (Salom!) salomlashish shakli keng qo'llaniladi.

¹ Begmatov Quvonchbek Muxtarovich, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, (PhD)

Nemis tili grammatik jihatdan aniq va tartibli til hisoblanadi, biroq kollokvial so'zlashuv jarayonida ba'zan grammatik me'yorlar buziladi, masalan:

Rasmiy: Hast du das gemacht? (Buni qildingmi?)

Norasmiy: Haste das gemacht? yoki Hast' es gemacht?

Shuningdek, modallikni bildirib keladigan fe'llar ham qisqartirilishi mumkin va misollarda quyidagicha qo'llanishi mumkin, masalan:

Ich weiß nicht → Ich weiß net (Ayniqsa janubiy mintaqalarda)

Ich kann es nicht → Ich kann's nicht

Nemis tilidagi kollokvializmlar turli xil manbalarning ta'siri natijasida shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Buni aksariyat hollarda shevalar va dialektlar misolida ko'rishimiz imkoni ko'proq bo'ladi. Fikrimiz isboti sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kollokvializmlarni hosil qiluvchi iboralar ko'p hollarda mahalliy dialektlardan olingan bo'ladi. Masalan, Bavariyada ishlatiladigan Servus! yoki Shveysariyada uchraydigan Grüezi! so'zlari fikrimizning yaqqol isbotidir..

Ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar globallashuv jarayoni natijasida nemis tiliga inglizcha iboralar shaklida singib ketgan holatlar ham uchramiz. Masalan, chillig, cool, nice kabi so'zlar ayniqsa nemis yoshlar orasida keng ommalashgan.

Bundan tashqari bugungi kunda taraqqiyotning buyuk hosilasi sanalgan ijtimoiy tarmoqlar va pop-madaniyatning chuqur ommalshuvi natijasi o'laroq yangi kollokvial so'zlar nutqda jadal qo'llana boshladi. Masalan, Läuft bei dir (Ishlaring yaxshi ketyapti, ajoyib!) iborasi internet tilida ommalashgan.

Agar so'zlovchi yoki nemis tilini o'rganishni boshlayotgan o'quvchi nemis tilida tabiiyroq gapirmoqchi bo'lsalar, kollokvializmlarni ham o'rganishi foydadan holi bo'lmaydi. Buni quyidagi usullar yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Nemis tilidagi filmlar va seriallarni tomosha qilish (masalan, How to Sell Drugs Online (Fast) yoki Dark).
2. Nemis tilidagi podcast va YouTube kanallarini tinglash (masalan, Easy German).
3. Nemis tilda so'zlashuvchi yoki ona tilisi nemis tili bo'lgan kishilar bilan ko'proq muloqot qilish.
4. Internet forumlari va ijtimoiy tarmoqlarda nemischa yozish va so'zlashish jarayonlarida ishtirok etish kabilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nemis tilidagi kollokvializmlar tilni yanada jonli va tabiiy bo'lishini ta'minlaydi. Ular nafaqat norasmiy muloqotda muhim, balki nemis tilining madaniy boyligini tushinishda ham katta rol o'ynaydi. Shu sababli, nemis tilini o'rganishda kollokvializmlarga e'tibor qaratish foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Begmatov, Q. (2024, November). *Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini leksik-grammatik mashqlar yordamida rivojlantirish. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 490-492).

[2]. Begmatov, Q., & Niyatqobilova, B. (2024, November). *Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishning o'rnini va ahamiyati. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 437-439).

[3]. Zimmermann H. *Zu einer Typologie des spontanen Gesprächs // Syntaktische Studien zur baseldeutschen Umgangssprache. Bern, 1965*

[4]. Волкова Р.А. Нечай Ю.П. *Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2: Филология и искусствоведение. Особенности стилизации немецкой разговорной речи в художественной прозе Э.М.Ремарка*

[5]. Девкин В.Д. *Особенности немецкой разговорной речи. М., 1965.*

[6]. Xushnudabonu, S., Abdunazarovich, E. Q., & Abdunazarovich, E. Q. (2025). *The functional roles of indefinite pronouns in english sentences. Shokh library*